

QATAR TASHQI SIYOSATINING QURILISHI, SIYOSIY VOSITALAR VA QAROR QABUL QILISH JARAYONLARI

Oyatillo Rasuljon o'g'li Toshtemirov

Tayanch doktorant

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O'zbekiston.

Annotatsiya. Maqolada qatarning tashqi siyosati tahlil qilinib, uning global kuchlar, xususan, aqsh bilan strategik ittifoqlari, ko'p tomonlama diplomatiya yondashuvi va inqirozlarga moslashish qobiliyati ko'rib chiqiladi. Al-udeyd harbiy bazasi, 2017-yilgi fors ko'rfazi blokadasi va xalqaro tashkilotlardagi faollik kabi muhim jihatlar tahlil qilinadi. Qatarining yumshoq kuch strategiyasi, iqtisodiy diversifikatsiya hamda xalqaro vositachilik roli uning mintaqaviy va global geosiyosiy maydondagi ta'sirini mustahkamlashga yordam beradi.

Kalit so'zlar: qatar, tashqi siyosat, strategik ittifoq, aqsh, al-udeyd, diplomatiya, fors ko'rfazi blokadasi, yumshoq kuch, ko'p tomonlama hamkorlik, geosiyosat.

ПОСТРОЕНИЕ ВНЕШНЕЙ ПОЛИТИКИ КАТАРА, ПОЛИТИЧЕСКИЕ ИНСТРУМЕНТЫ И ПРОЦЕССЫ ПРИНЯТИЯ РЕШЕНИЙ

Оятилло Р. Тоштемиров - Базовый докторант

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан.

Аннотация. В статье анализируется внешняя политика Катара и рассматриваются его стратегические союзы с мировыми державами, в частности с США, его многосторонний дипломатический подход и его способность адаптироваться к кризисам. Будут проанализированы такие важные аспекты, как военная база Аль-Удейд, блокада Персидского залива в 2017 году и активность в международных организациях. Стратегия мягкой силы Катара, экономическая диверсификация и международная посредническая роль помогают укрепить его влияние на региональной и глобальной геополитической арене.

Ключевые слова: Катар, внешняя политика, стратегический альянс, США, Аль-Удейд, дипломатия, блокада Персидского залива, мягкая сила, многостороннее сотрудничество, геополитика.

CONSTRUCTION OF QATAR'S FOREIGN POLICY, POLITICAL TOOLS AND DECISION-MAKING PROCESSES

Oyatillo R. Toshtemirov - PhD student

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan.

Annotation. The article analyzes Qatar's foreign policy and examines its strategic alliances with global powers, particularly the United States, its multilateral diplomacy approach, and its ability to adapt to crises. Important aspects such as the Al-Udeid military base, the 2017 Persian Gulf blockade, and activism in international organizations are analyzed. Qatar's soft power strategy, economic diversification, and international mediation role help strengthen its influence in the regional and global geopolitical arena.

Keywords: Qatar, Foreign Policy, Strategic Alliance, USA, Al-Udeid, diplomacy, Gulf blockade, soft power, multilateral cooperation, geopolitics.

KIRISH.

Qatar tashqi siyosati bir qancha muhim omillar, jumladan, mamlakatning geosiyosiy joylashuvi, tabiiy gazdan olingan iqtisodiy boyligi, suverenitetni saqlab qolish istagi, mintaqaviy va global ambitsiyalari bilan shakllanadi. Qatar tashqi siyosatidagi qarorlarni qabul qilish jarayonlariga kichik, ammo kuchli rahbarlar doirasi ta'sir ko'rsatadi, Qatar amiri yakuniy vakolatga ega. Quyida Qatar tashqi siyosatining qurilishi va qaror qabul qilish jarayonlariga umumiy nuqtai nazar solamiz.

Rahbarlikka asoslangan tizim. Qatarni Al Tani sulolasi boshqaradi, amir esa davlatning asosiy qaror qabul qiluvchisi hisoblanadi. Amir Shayx Hamad bin Xalifa Ol Soniy (1995–2013) Qatarni mintaqaviy vositachi va xalqaro diplomatiya markaziga aylantirishga harakat qildi. Uning tashabbusi bilan Al-Jazira teleradiokompaniyasi tashkil etilib, Qatar yumshoq kuch siyosatini mustahkamladi. 2013-yildan beri hukmronlik qilayotgan Shayx Tamim bin Hamad Ol Soniy bu yo'nalishni davom ettirib, 2017-yilgi Fors ko'rfazi diplomatik inqirozi kabi qiyinchiliklarga duch keldi. Uning muvaffaqiyatli diplomatik siyosati markazlashgan qaror qabul qilish tizimining samaradorligini yana bir bor ko'rsatdi.

Amirni qaror qabul qilish jarayonida qirol oilasi va Tashqi ishlar vazirligi qo'llab-quvvatlaydi. Al Tani oilasi vakillari hukumatda muhim lavozimlarni egallab, tashqi siyosatda izchillikni ta'minlaydi. Mehran Kamrava Qatar tashqi siyosatida qarorlar oz sonli elita tomonidan qabul qilinishining xalqaro muammolarga tezkor javob berish imkonini yaratishini ta'kidlaydi.¹

¹ Mehran Kamrava, Qatar: Small State, Big Politics (Ithaca, NY: Cornell University Press, 2013). 27-b.

Tashqi ishlar vazirligi siyosatni shakllantirish va amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi. 2016-yildan buyon Shayx Muhammad bin Abdulrahmon Ol Tani tashqi ishlar vaziri lavozimini egallab kelmoqda. Gerd Nonnemanning fikricha, vazirlik Qatar xalqaro imijini mustahkamlash va diplomatik tashabbuslarni ilgari surishda muhim o'rin tutadi.

2017-yilgi Fors ko'rfazi inqirozi Qatar yetakchilik modelining amaliy isbotidir. Blokada davomida amir va uning jamoasi Turkiya va Eron bilan aloqalarni mustahkamlash, muqobil iqtisodiy sheriklarni topish va Qatar moliyaviy resurslarini blokada ta'sirini yumshatish uchun samarali qo'lladi. Iqtisodiy diplomatiya, jumladan, LNG eksportidan foydalanish, Qatar mustaqilligi va global rolini saqlab qolishda muhim omil bo'ldi. Rori Miller Qatar mustaqilligini saqlagan holda global munosabatlarni muvozanatlashtirishda amirning yetakchiligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etganini ta'kidlaydi.²

Qatarning tashqi siyosati markazlashgan boshqaruv tizimiga asoslangan bo'lib, tezkor, moslashuvchan va iqtisodiy-diplomatik vositalardan samarali foydalanishga yo'naltirilgan.³

Iqtisodiy quvvat tashqi siyosat quroli sifatida. Qatarning tashqi siyosati uning ulkan tabiiy gaz resurslariga asoslangan iqtisodiy qudrati bilan belgilanadi. Dunyo bo'yicha Rossiya va Erondan keyin uchinchi yirik gaz zaxirasiga ega bo'lgan Qatar suyultirilgan gaz eksporti orqali global siyosatda muhim rol o'ynaydi. Shimoliy ko'rfaz gaz zaxiralari mamlakatga xalqaro investitsiyalar va moliyaviy yordam jalb qilish imkonini bergan.

Qatar Osiyo va Yevropaga gaz yetkazib berish orqali mintaqaviy bosimlarga qaramay, mustaqil tashqi siyosat olib boradi. 2017-yilgi Fors ko'rfazi blokadasi davomida ham Qatar o'zining energiya eksportini saqlab qolib, global ittifoqlarini mustahkamladi. Kristian Kouts Ulrixsen ta'kidlaganidek, tabiiy gaz resurslari Qatarning nafaqat iqtisodiy barqarorligini ta'minladi, balki yumshoq kuch vositasiga aylandi.⁴

Qatar uzoq muddatli energiya shartnomalari orqali Buyuk Britaniya va Germaniya kabi davlatlar bilan strategik aloqalarni mustahkamladi. Rossiyaning Ukrainaga bostirib kirishi ortidan Yevropaning gaz diversifikatsiyasiga bo'lgan ehtiyoji Qatar rolini yanada kuchaytirdi. Shuningdek, ExxonMobil va Shell kabi transmilliy kompaniyalar bilan hamkorlik Qatarni global energetika markaziga aylantirdi.⁵

² Gerd Nonneman, Qatar and the World: Branding for a Micro-State, The Middle East Journal, 2006. 48-b.

³ Rory Miller, Desert Kingdoms to Global Powers: The Rise of the Gulf States (New Haven, CT: Yale University Press, 2016). 36-b.

⁴ Kristian Coates Ulrichsen, Qatar and the Gulf Crisis (London: Hurst Publishers, 2020). 42-b.

⁵ Mehran Kamrava, Qatar: Small State, Big Politics (Ithaca, NY: Cornell University Press, 2013). 32-b.

QIA suveren jamg'armasi orqali Qatar 450 milliard dollarlik aktivlarni boshqaradi va Yevropa, AQSh va Osiyoda muhim investitsiyalarni amalga oshiradi. Barclays, Credit Suisse va Harrods kabi yirik kompaniyalarga sarmoya kiritish orqali iqtisodiy va diplomatik ta'sirini kengaytiradi. Pol Rivlinning fikriga ko'ra, bu strategiya Qatarining xalqaro siyosiy-iqtisodiy mavqeini mustahkamlashga xizmat qiladi⁶

QIA sarmoyalari nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy ittifoqlar uchun ham strategik ahamiyatga ega. AQSh bilan mustahkam iqtisodiy aloqalar Al-Udeyd harbiy bazasi orqali harbiy hamkorlikni kuchaytirgan. Bundan tashqari, Qatar ta'lim va madaniyat sohalarida ham global obro' orttirish uchun sarmoya kiritib, Jozef Nay ta'kidlaganidek, yumshoq kuch siyosatini muvaffaqiyatli yuritmoqda.⁷

Mintaqaviy munosabatlarni muvozanatlash. Qatar mintaqaviy siyosatda muvozanatni saqlashga intilib, Saudiya Arabistoni, BAA, Eron va Turkiya o'rtasida pragmatik va qo'shilmaslik siyosatini yuritadi. U Fors ko'rfazida mustaqil ishtirokchi sifatida qarama-qarshi kuchlar bilan diplomatik aloqalarni saqlab, vositachilik qiladi va suverenitetini himoya qiladi.

Qatar Ko'rfaz Hamkorlik Kengashining a'zosi bo'lsa-da, mustaqil tashqi siyosat yuritib, Eron va Turkiya bilan hamkorlikni rivojlantirib, G'arb davlatlari bilan aloqalarni saqlab qoldi. Bu strategiya "strategic hedging" sifatida baholanib, xavflarni minimallashtirish va avtonomiyani oshirishga qaratilgan.⁸ Qatar mintaqaviy va xalqaro institutlarda ishtirok etib, vositachi sifatida o'z nufuzini mustahkamlashga harakat qiladi.⁹

Qatar vositachilik orqali xalqaro nizolarga ta'sir o'tkazib, Yaqin Sharq va Afrikadagi mojarolarda muhim rol o'ynadi. 2008-yilda Livandagi siyosiy inqirozni hal qilishda, 2011-yilda Darfur tinchlik muzokaralarida, 2020-yilda AQSh va Tolibon o'rtasidagi tinchlik kelishuvlarida vositachilik qildi.¹⁰ Ushbu diplomatik yondashuv Qatarni neytral tomon sifatida ko'rsatib, uning yumshoq kuch strategiyasining asosiy qismiga aylandi.

Suriyadagi urush davrida Qatar dastlab muxolifatni qo'llab-quvvatladi, keyinchalik esa diplomatik va gumanitar tashabbuslarga yo'naldirdi. Bu uning mintaqaviy barqarorlikka e'tibor qaratishini ko'rsatadi. Jozef Nay ta'kidlaganidek, kichik davlatlar diplomatiya va iqtisodiy hamkorlik orqali o'z ta'sirini kuchaytirishi

⁶ Paul Rivlin, *The Political Economy of the Middle East* (Cambridge University Press, 2009). 14-b.

⁷ Joseph S. Nye, *Soft Power: The Means to Success in World Politics* (New York: PublicAffairs, 2004), 35-b.

⁸ Hunter S. Marston, "Navigating Great Power Competition: A Neoclassical Realist View of Hedging," *International Relations of the Asia-Pacific* 24, no. 1 (2023): 27-b.

⁹ Mehran Kamrava, *Qatar: Small State, Big Politics* (Ithaca, NY: Cornell University Press, 2013). 51-b.

¹⁰ Mehran Kamrava, "Mediation and Qatar's Foreign Policy," *The Middle East Journal* 65, no. 4 (2011), 86-b.

mumkin.¹¹ Qatar ushbu yondashuv orqali Yaqin Sharq geosiyosatidagi ta'sirini mustahkamladi.

Yumshoq kuch diplomatiyasi. Qatar tashqi siyosati nafaqat iqtisodiy qudratiga, balki yumshoq kuch strategiyasiga ham asoslanadi. Ommaviy axborot vositalari, sport, madaniy diplomatiya va gumanitar yordam orqali Qatar global ta'sirini kuchaytiradi.

Al-Jazira tarmog'i (1996-yilda tashkil etilgan) Qatar yumshoq kuch diplomatiyasining asosiy vositalaridan biridir. U Yaqin Sharq siyosati bo'yicha mustaqil yondashuvi bilan mashhurlikka erishdi. 2011-yilgi Arab bahori voqealarida namoyishchilarga axborot yetkazishda muhim rol o'ynadi. Ammo Al-Jaziraning ayrim masalalar bo'yicha tanqidiy pozitsiyasi Fors ko'rfazi davlatlari bilan keskinlikni oshirdi, natijada 2017-yilda Saudiya Arabistoni va boshqa davlatlar Qatarga qarshi blokada e'lon qildi.¹²

Qatar sport va madaniyatga sarmoya kiritib, o'zining global imidjini oshirishga intiladi. 2022-yilgi futbol bo'yicha jahon chempionatiga mezbonlik qilish Qatar uchun sport diplomatiyasining eng muhim natijalaridan biri bo'ldi.¹³ Ta'lim sohasida esa Qatar Jamg'armasi va Education City orqali xalqaro ilmiy muassasalarni jalb etish Qatarning global ta'sirini oshirishga xizmat qilmoqda.

Gumanitar diplomatiya Qatar siyosatining muhim tarkibiy qismi bo'lib, mojaro zonalarida faol ishtirok etadi. G'azo, Suriya va Yaman kabi hududlarda yordam dasturlarini amalga oshirib, xalqaro obro'sini mustahkamlamoqda. Qatar BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda global muammolarni hal etishda faol ishtirok etmoqda.

XULOSA

Qatarning tashqi siyosati geosiyosiy joylashuvi, iqtisodiy resurslari va suverenitetini saqlash strategiyalariga asoslangan. Markazlashgan boshqaruv tizimi va amirning yetakchiligi davlatga mintaqaviy va global maydonda mustaqil harakat qilish imkonini beradi. Iqtisodiy diplomatiya, ayniqsa tabiiy gaz eksporti va investitsiyalar, Qatar ta'sirining asosiy vositasiga aylangan.

Mamlakat pragmatik tashqi siyosat yuritib, mintaqaviy kuchlar bilan muvozanatni saqlashga intiladi. Vositachilik diplomatiyasi orqali Yaqin Sharq va xalqaro nizolarga ta'sir ko'rsatib, o'zining tinchlikparvar imidjini mustahkamlashga erishdi. Yumshoq kuch strategiyasining tarkibiy qismlari bo'lgan ommaviy axborot vositalari, sport va madaniy diplomatiya esa Qatar global obro'sini oshirishda muhim rol o'ynadi.

¹¹ Joseph S. Nye, *Soft Power: The Means to Success in World Politics* (New York: PublicAffairs, 2004), 64-b.

¹² Marwan M. Kraidy, *The Naked Blogger of Cairo: Creative Insurgency in the Arab World* (Cambridge and London: Harvard University Press, 2016), 33-b.

¹³ Simon Chadwick and Paul Widdop, *The Business of Sport in the Gulf States* (New York: Routledge, 2023), 27-b.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mehran Kamrava, Qatar: Small State, Big Politics (Ithaca, NY: Cornell University Press, 2013).
2. Gerd Nonneman, Qatar and the World: Branding for a Micro-State, The Middle East Journal, 2006.
3. Rory Miller, Desert Kingdoms to Global Powers: The Rise of the Gulf States (New Haven, CT: Yale University Press, 2016).
4. Kristian Coates Ulrichsen, Qatar and the Gulf Crisis (London: Hurst Publishers, 2020).
5. Paul Rivlin, The Political Economy of the Middle East (Cambridge University Press, 2009).
6. Joseph S. Nye, Soft Power: The Means to Success in World Politics (New York: PublicAffairs, 2004).
7. Hunter S. Marston, “Navigating Great Power Competition: A Neoclassical Realist View of Hedging,” International Relations of the Asia-Pacific 24, no. 1 (2023).
8. Mehran Kamrava, "Mediation and Qatar's Foreign Policy," The Middle East Journal 65, no. 4 (2011).
9. Marwan M. Kraidy, The Naked Blogger of Cairo: Creative Insurgency in the Arab World (Cambridge and London: Harvard University Press, 2016).
10. Simon Chadwick and Paul Widdop, The Business of Sport in the Gulf States (New York: Routledge, 2023).